



Xalq so'zi

2026-YIL – MAHALLANI RIVOJLANTIRISH VA JAMIYATNI YUKSALTIRISH YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: info@xs.uz

2026-yil 5-fevral, № 24 (9195)

Payshanba

Saytimizga o'lish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON PREZIDENTI IORDANIYA BILAN PARLAMENTLARARO ALOQALARNI YANADA RIVOJLANTIRISH MUHIMLIGINI TA'KIDLADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Senati Raisi Faysal Aqif Misqal al-Fayoz boshchiligidagi delegatsiyani qabul qildi.



Uchrashuv avvalida yuqori martabali mehmon davlatimiz rahbariga Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husaynning samimiy salomi va tilaklarini yetkazdi.

O'tgan yili Samarqandda oliy darajada erishilgan kelishuvlarni amalga oshirish doirasida O'zbekiston – Iordaniya keng qamrovli sheriklik munosabatlarini yanada rivojlantirishning dolzarb masalalari muhokama qilindi.

Ikki tomonlama aloqalar va almashinuvlar faol tus olgani mamnuniyat bilan qayd etildi. O'zaro savdo hajmi va qo'shma korxonalar soni ortib bormoqda.

Parlamentlarda tashkil etilgan "do'stlik guruhlari" ishini "Yo'l xaritasi" asosida faollashtirish, ularning davlat rahbarlari o'rtasida erishilgan kelishuvlarning samarali amalga oshirilishini ta'minlashdagi rolini kuchaytirish muhimligi ta'kidlandi.

Savdo, sanoat kooperatsiyasi, turizm va madaniy-gumanitar sohalaridagi o'zaro hamkorlikni kengaytirishga alohida e'tibor qaratildi.

Xususan, joriy yilda Toshkent shahrida bo'lib o'tadigan Hukumatlararo komissiya boshchiligidagi birinchi yig'ilishi va yetakchi kompaniyalar biznes forumini natijador qilib o'tkazish zarurligi ta'kidlandi.

Shuningdek, dolzarb xalqaro va mintaqaviy masalalar yuzasidan fikr almashildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

O'ZBEKISTON PREZIDENTI DAVLAT TASHRIFI BILAN POKISTONDA BO'LADI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Pokiston Islom Respublikasi Bosh vaziri Shahboz Sharifning taklifiga binoan 5-6-fevral kunlari davlat tashrifi bilan ushbu mamlakatda bo'ladi.

Dasturga muvofiq, Islomobodda Pokiston Prezidenti Asif Ali Zardoriy, Bosh vazir Shahboz Sharif, Mudofaa kuchlari Oliy Bosh qo'mondoni – Qurolli Kuchlarning quruqlikdagi qo'shinlar qo'mondoni, feldmarshal Asim Munir bilan muzokaralar hamda Strategik hamkorlik kengashining birinchi yig'ilishini o'tkazish rejalashtirilgan.

O'zbekiston bilan Pokiston o'rtasidagi strategik sheriklik va ko'p qirrali hamkorlik munosabatlarini yanada chuqurlashtirish masalalari oliy darajadagi muloqotlar kun tartibining markazida bo'ladi.

Siyosiy muloqotni kengaytirish, ikki mamlakat hukumatlari, parlamentlari, ishbiarmon doiralari hamda hududlari o'rtasidagi aloqalarni mustahkamlashning muhim jihatlari har tomonlama ko'rib chiqiladi.

Tomonlar tovar ayirboshlashni oshirishga, sanoat, transport va infratuzilma, turizm sohalaridagi hamkorlik loyihalarini ilgari surishga hamda madaniy-gumanitar aloqalarni davom ettirishga alohida e'tibor qaratiladi.

Xalqaro va mintaqaviy ahamiyatga molik dolzarb masalalar yuzasidan fikr almashildi.

Muzokaralar yakunida Qo'shma deklaratsiya va ustuvor sohalar bo'yicha kelishuvlarning salmoqli to'plami imzolaniishi kutilmoqda.

O'zbekiston Prezidenti ikki mamlakat yetakchi ishbiarmon doiralari vakillarining qo'shma biznes forumida ham ishtirok etadi.

O'ZA.

O'zbekiston – Pokiston:

STRATEGIK SHERIKLIKNING YANGI BOSQICHI

O'zbekiston va Pokiston o'rtasidagi munosabatlar so'nggi yillarda sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarilmoqda. Ikki do'st davlatning o'zaro manfaatlari – geosiyosiy joylashuv, transport-logistika imkoniyatlari, iqtisodiy salohiyat va madaniy yaqinlik ularni tabiiy strategik sherikka aylantirayotir. Prezidentlar tashriflari va oliy darajadagi muloqotlar munosabatlarning ko'lamini hamda mazmunini kengaytirishga xizmat qilmoqda.

Biz va jahon

Aytish joizki, o'zaro aloqalar, ayniqsa, iqtisodiy yo'nalishda yangi sur'at bilan rivojlanayotganini ko'rishimiz mumkin. Savdo-sotiq nuqtayi nazaridan iqtisodiyot sohasida hamkorlik raqobatchi emas, aksincha, bir-birini to'ldirish tamoyiliga asoslangani e'tiborga molik. Shu ma'noda, o'zaro tovar ayirboshlash hajmini oshirish uchun katta imkoniyatlar mavjud.

Raqamlarga e'tibor bering, so'nggi yillarda O'zbekiston hamda Pokiston o'rtasidagi tovar ayirboshlash hajmi 12 barobarga oshdi, kelgusida bu ko'rsatkichni 2 mlrd. dollarga yetkazish maqsad qilingan.

Iqtisodiy "sakrash" uchun muhim tashabbuslar

Shu o'rinda savol tug'iladi: avvalo, buning uchun nimalarga e'tibor qaratish lozim? Kelgusi ustuvor yo'nalishlar haqida gapirar ekanmiz, oddiy savdodan yuqori qo'shilgan qiymatga ega qo'shma zanjirlarni shakllantirishga o'tish, shuningdek, axborot texnologiyalari, ta'lim va kadrlar tayyorlash sohalarida hamkorlikni kuchaytirish muhim masala. Boisi savdo faqatgina haqiqiy investitsiyalar hamda samarali iqtisodiy mexanizmlar mavjud bo'lgandagina barqaror o'sadi. Bu yo'nalishda esa salmoqli ishlar bajarilgan, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Prezidentimizning 2022-yil Pokistonga tarixiy tashrifi davomida ilk bor Imtiyozli savdo bitimi imzolangan edi. Transport va tranzit sohasidagi hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish sa'y-harakatlari izchil davom ettirilmoqda. Maqsad – mahsulotlarni davlatlarimiz o'rtasida to'siqsiz va eng qisqa muddatlarda yetkazib berish tizimini yaratishdan iborat. Bunday e'tibor hamda shart-sharoitlar o'zaro aloqalarni faollashtirib, yaqin yillarda tovar ayirboshlash hajmini 500 mln. dollarga, kelgusida esa 1 mlrd. dollarga yetkazish uchun mustahkam zamin yaratadi.

Hozirgi savdo aylanmasi 400 mln. dollardan sal ko'proq bo'lsa-da, bu ikki mamlakat yalpi ichki mahsulotining atigi 0,1 foizini tashkil etadi. Aslida o'sish uchun imkoniyatlar juda ulkan. Ammo hamkorlikning muvaffaqiyati geografik, demografik va iqtisodiy afzalliklardan to'liq foydalanish imkonini beradigan samarali infratuzilmaviy aloqalar hamda bozorlar integratsiyasiga bog'liq. Shu ma'noda, ayni vaqtga qadar bo'lib o'tgan davlat rahbarlarining sammitlari har ikkala tomonning iqtisodiyot, savdo, energetika, ta'lim, madaniyat, turizm va boshqa sohalaridagi aloqalarni qamrab oluvchi ko'p qirrali hamkorlikni chuqurlashtirishga intilishini yaqqol ko'rsatadi.



FARG'ONA VILOYATIDAGI ISLOHOTLAR NATIJALARI TAHLILI VA USTUVOR VAZIFALAR MUHOKAMASI

Prezident Shavkat Mirziyoyev Farg'ona viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha amalga oshirilishi lozim bo'lgan ustuvor vazifalar yuzasidan yig'ilish o'tkazdi.

Yig'ilish avvalida so'nggi yillarda Farg'ona viloyatida amalga oshirilgan tizimli islohotlarning natijalari tahlil qilindi. Yer va qazilma boyliklari cheklangan bo'lishiga qaramasdan, hududda iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, sanoat, qishloq xo'jaligi, xizmatlar va axborot texnologiyalari sohalarida barqaror o'sish ta'minlandi.

Jumladan, aholi jon boshiga yalpi hududiy mahsulot hajmi 2017-yilda 7 million so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib, 26,6 million so'mga yetdi yoki 3,8 barobar o'sdi. Bu iqtisodiy faollik va aholi daromadlari sezilarli oshganini ko'rsatadi.

Bandlik va ijtimoiy ko'rsatkichlar bo'yicha ham ijobiy sur'at qayd etildi. O'tgan yilda 519 ming nafar aholining bandligi ta'minlanib, ularning daromadlari oshirildi va 53 ming oila kambag'allik reestridan chiqarildi. Endilikda 2026-yil yakuniga qadar ishsizlikni 3 foizga,

kambag'allikni esa 2,7 foizga kamaytirish ko'zda tutilmoqda.

Investitsiya va tashqi savdo sohasida ham sezilarli o'sishga erishildi. Viloyatda 26 ta yirik, 357 ta o'rta va kichik investitsiya loyihalari ishga tushirilib, salkam 3 milliard dollar xorijiy investitsiya o'zlashtirildi. Eksport hajmi izchil oshdi, eksportchi korxonalarning soni kengaydi.

Qishloq xo'jaligida o'tgan yili 94,3 ming gektar maydonda 816,7 ming tonna g'alla yetishtirilib, o'rta hosildorlik 86,6 sentnerni tashkil etdi. Paxtachilikda 72 ming gektarda 324 ming tonna hosil olindi. Mevasabzavot eksporti 403 million dollarga yetdi. Tomorqachilik va ixcham ishsizxonalar orqali minglab xonadonlar barqaror qo'shimcha daromad manbaiga ega bo'ldi.

(Davomi 2-betda).



MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHGA QARATILGAN CHORA-TADBIRLAR TAQDIMOTI

Prezident Shavkat Mirziyoyev maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimini yanada takomillashtirish yuzasidan takliflar taqdimoti bilan tanishdi.

Maktabgacha ta'lim bolaning intellektual, ijtimoiy va ma'naviy rivojlanishida hal qiluvchi bosqich hisoblanadi. Shu bois, so'nggi yillarda ushbu sohada qamrovni kengaytirish, ta'lim sifatini oshirish va xususiy sektor ishtirokini rag'batlantirish bo'yicha izchil islohotlar amalga oshirildi. Natijada mamlakatimizda maktabgacha ta'lim bilan qamrov 78 foizga yetdi.

Shu bilan birga, qamrovni 80 foizga yetkazish uchun yangi bog'cha o'rinlarini yaratish talab etiladi, 39 ta tuman va shaharda esa bog'cha qamrovi 70 foizdan past darajada qolmoqda. Shuningdek, davlat bog'chalarida pedagoglarning 61 foizi, nodavlat bog'chalarda esa 76 foizi o'rta maxsus ma'lumotga egaligi kadrlar salohiyatini yanada oshirish dolzarb masala ekanini ko'rsatmoqda.

Shu munosabat bilan taqdimotda maktabgacha ta'lim tizimini yangi bosqichga

olib chiqish bo'yicha ishlab chiqilgan chora-tadbirlar muhokama qilindi.

Jumladan, bir yillik maktabga tayyorlov guruhlarining ta'lim dasturi majburiy umumiy o'rta ta'limning dastlabki bosqichi sifatida joriy etiladi. Bunda bolalarni maktab ta'limiga puxta tayyorlash, ta'limda uzluksizlikni ta'minlash asosiy maqsad qilib qo'yilgan.

Maktabgacha ta'lim tizimida o'yinga asoslangan ta'lim modeli joriy etilib, bolaning tabiiy qobiliyati va qiziqishlarini hisobga olgan holda ta'lim-tarbiya jarayoni tashkil qilinadi. Ilg'or xorijiy tajribalar asosida o'quv muhiti yangilanadi.

Shuningdek, "Yangi avlod" maktabgacha ta'lim tashkilotlari tarmog'ini shakllantirish rejalashtirilgan. 2026-2028-yillarda har bir hududda 120 o'rinni "Yangi avlod" davlat bog'chalari hamda ularning tarkibida Bolalarni rivojlantirish innovatsion markazlari tashkil etiladi.

(Davomi 2-betda).



Yig'ilish

SENATNING NAVBATDAGI YALPI MAJLISIDA QANDAY MASALALAR KO'RILADI?

Oliy Majlis Senati Kengashining navbatdagi majlisi bo'lib o'tdi. Unda Senatning o'n uchinchi yalpi majlisini 2026-yil 5-fevral kuni chaqirish to'g'risida qaror qabul qilindi.

Yalpi majlis kun tartibida mamlakatni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish, amaldagi qonunchilikni takomillashtirish, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilishga doir qator masalalarni ko'rib chiqish nazarda tutilgan.

Jumladan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasidan kelib chiqadigan ustuvor vazifalar belgilab olinadi hamda Oliy Majlis

Senatning 2025-yildagi faoliyati sarhisob qilinadi.

Shuningdek, senatorlar oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, aholining sog'lom turmush tarzini qo'llab-quvvatlash, sportni ommalashtirish, shaxsga doir ma'lumotlarni muhofaza qilish tizimini yanada takomillashtirishga qaratilgan qonunlarni ko'rib chiqadi.

Bundan tashqari, O'zbekistonda islomiy bank faoliyatini joriy etishga oid qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar

kiritish, ekologik toza hududlarning huquqiy maqomini belgilash, muhofazadagi tabiiy hududlar bo'yicha qonunchilikni takomillashtirish masalalari kun tartibidan o'rin olgan.

Yalpi majlisda O'zbekiston Respublikasi bilan Vengriya o'rtasida ushlab berish to'g'risidagi shartnomani ratifikatsiya qilish, 2030-yilga qadar gender tenglikka erishish strategiyasini amalga oshirish bo'yicha belgilangan vazifalar, ijtimoiy sohaga ixtisoslashtirilgan davlat va xususiy oliy ta'lim muassasalari bitiruvchilari bandligini ta'minlash chora-tadbirlari

ijrosining muhokama etilishi rejalashtirilgan.

Shu bilan birga, Vazirlar Mahkamasiga hududlarda infratuzilmaviy rivojlantirish, qurilish ishlarini tartibga solish, dorivor o'simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, aliment undirish hamda to'lash tizimini takomillashtirish bo'yicha yuborilgan parlament so'rovlari natijalari ko'rib chiqiladi.

Yalpi majlis doirasida senatorlar O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi va Oliy sud tarkiblariga o'zgartirishlar kiritish masalalarini ham muhokama qiladi.

Oliy Majlis Senati Axborot xizmati.

FARGʻONA VILOYATIDAGI ISLOHOTLAR NATIJALARI TAHLILI VA USTUVOR VAZIFALAR MUHOKAMASI

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Yigʻilishda Fargʻona viloyatini rivojlantirishning ustuvor vazifalari belgilab olindi.

Qayd etilganidek, viloyatda investitsiya va eksport hajmlarini izchil oshirish, ishsizlik va kambagʻallikni qisqartirish masalalariga tizimli hamda manzilli yondashish talab etiladi. Shu maqsadda Fargʻona viloyati uchun umumiy qiymati 8,2 milliard dollar boʻlgan yangi yirik loyihalar paketi shakllantirilgan.

Joriy yilning oʻzida umumiy qiymati 4,2 milliard dollar boʻlgan loyihalarni ishga tushirish rejalashtirilgan. Ushbu loyihalarining 2,7 milliard dollari sanoat, 210 million dollari qishloq xoʻjaligi, 1,2 milliard dollari servis va turizm sohalariga toʻgʻri keladi.

Shu bilan birga, oʻtgan yillarda sanoat maqsadlari uchun ajratilgan 2 ming 115 gektar yer maydonining 40 foizi haligacha auksionga chiqarilmagani qayd etildi. Qoʻshimcha yer ajratishdan oldin mavjud boʻsh yerlar infratuzilmasini yaxshilash va ularni tadbirkorlarga taklif etish orqali investitsiya loyihalarini joylashtirish

samaradorligini oshirish zarurligi taʼkidlandi.

Bandlik va kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha aniq maqsadli koʻrsatkichlar belgilandi. Joriy yilda jami 595 ming nafar, shundan 98 ming doimiy ish oʻrni yaratish, 423 ming aholini daromadli qilish hamda 74 ming ish oʻrnini “soya”dan chiqarish rejalashtirilgan.

Buayda, Uchkoʻprik, Quva, Oʻzbekiston, Yozyovon tumanlari hamda Margʻilon, Fargʻona, Qoʻqon va Quvasoy shaharlarini ishsizlik va kambagʻallikdan xoli hududlarga aylantirish vazifasi qoʻyildi. Shu maqsadda 7 ta tuman va 132 ta “ogʻir” mahallada infratuzilmani yaxshilash orqali ishsizlik va kambagʻallikni ikki karra qisqartirish uchun 800 milliard soʻmdan ortiq mablagʻ ajratiladi. Shuningdek, banklar tomonidan “Mahalla loyihasi” dasturi doirasida 1,4 trillion soʻmlik kredit resurslari yoʻnaltiriladi.

Qishloq xoʻjaligida meva-sabzavot mahsulotlarini xom holda emas, yuqori qoʻshilgan qiymatga ega tayyor mahsulot sifatida sotish orqali eksport hajmini 510 million dollarga yetkazish

vazifasi belgilandi. Shu bois Fargʻona va Quvasoy shaharlarida xitoylik investorlar ishtirokida umumiy qiymati 175 million dollar boʻlgan agrologistika markazlari barpo etiladi.

Oʻzbekiston, Beshariq va Olti-ariq tumanlarida chorvachilik, sutni qayta ishlash va nasli joʻja yetishtirish yoʻnalishlarida umumiy qiymati 21 million dollar boʻlgan 4 ta loyihani ishga tushirish rejalashtirilgan.

Ijtimoiy infratuzilmani aholining oʻsishiga mos ravishda rivojlantirish zarurligi taʼkidlandi. Joriy yilda 33 ta maktab qurilishi va rekonstruksiya uchun 343 milliard soʻm ajratilmoqda. Hudud rahbarlariga qoʻshimcha imkoniyatlarni ishga solish va xususiy sektorni jalb qilish orqali infratuzilmani yaxshilash vazifasi qoʻyildi.

Turizm salohiyatini kengaytirish maqsadida Soʻx tumanida Ugam va Miraki tajribasi asosida turizm majmualari tashkil etiladi, Fargʻona tumanida yirik turist-rekreatsion zona barpo qilinadi. Qoʻqon shahrida yangi turizm maskanlari barpo etilib, madaniy meros obyektlari boʻylab sayohat marshrutlari yoʻlga qoʻyiladi.

Shuningdek, Qoʻqon shahridagi 17

ta davlat idorasini “Yangi Oʻzbekiston” massiviga koʻchirish orqali aholiga barcha davlat xizmatlarini bir joyda koʻrsatadigan qulay va samarali tizimni shakllantirish vazifasi belgilandi.

Axborot texnologiyalari sohasida Fargʻona viloyati iqtisodiyotining muhim drayveri sifatida IT yoʻnalishini jadal rivojlantirish rejalashtirilgan.

Hozirda viloyatda 139 ta IT-park rezidenti faoliyat yuritmoqda. Joriy yilda axborot texnologiyalari xizmatlarining hajmini 3,5 trillion soʻmga, eksportni esa 30 million dollarga yetkazish maqsad qilingan. Fargʻona shahrida yangi IT-park va majmuasi, Margʻilon shahrida xalqaro IT oliygohi, shuningdek, Fargʻona shahrida “Muhammad al-Xorazmiy vorislari” loyihasini ishga tushirish rejalashtirilgan.

Davlatimiz rahbari yigʻilish yakunida har bir loyihani aholi bandligi va turmush darajasini oshirish bilan uzviy bogʻlab amalga oshirish, belgilangan vazifalar ijrosi uchun mutasaddilarning shaxsiy javobgarligini kuchaytirish boʻyicha aniq topshiriqlar berdi.

Oʻzbekiston – Pokiston:

STRATEGIK SHERIKLIKNING YANGI BOSQICHI



Bugungi kunda toʻqimachilik, farmatsevtika, qurilish materiallari, bank-moliya, kimyo sanoati va boshqa yoʻnalishlarda savdo-investitsiyaviy loyihalar amalga oshirilmoqda. Savdo yoʻlaklariga kelsak, Pokistonning jugʻrofiy joylashuvi Oʻzbekistonga Arab dengiziga qichish uchun eng qisqa savdo yoʻnalishini taqdim etadi. Pokiston orqali savdo qilish Oʻzbekiston uchun dengizga qichiqshning eng samarali yoʻli hisoblanadi.

Xuddi shunday, Markaziy Osiyo bozorlari bilan savdo munosabatlarni kengaytirishga xizmat qiladigan aloqalarni oʻrnatish Pokistonning asosiy maqsadlaridan biridir. Deylik, Transafgʻon temir yoʻli Oʻzbekistondan Pokiston portlariga qadar yetib borishda ketadigan vaqtni 35 kundan 3 – 5 kungacha qisqartiradi. Bu toʻgʻridan-toʻgʻri iqtisodiy afzallik boʻlib, uni qoʻldan boy bermaslik kerakligi bot-bot taʼkidlanadi.

Shu bilan birga, foydalanilmayotgan katta savdo salohiyati mavjud. Qoʻshma loyihalar va logistika tarmoqlari orqali integratsiya mintaqaning iqtisodiy landshaftini oʻzgartirishga qodir. Agar biz Afgʻonistonn turli integratsiyaviy loyihalarga jalb eta olsak, uch tomonlama hamkorlikdan katta manfaat koʻriladi. Bu, avvalo, Markaziy va Janubiy Osiyo oʻrtasidagi oʻzaro bogʻliqlikka koʻmaklashuvchi turli tashabbuslarni kengaytirishga xizmat qiladi.



yoshlar tashkil etadi. Aynan shuning uchun Oʻzbekiston va Pokiston oʻrtasida ushbu sohadagi hamkorlikni kengaytirish yoʻlida ulkan istiqbollarni koʻrish mumkin. Dasturiy

taʼminot eksporti, maʼlumotlar markazlarini tashkil etish, konsalting kompaniyalarini rivojlantirish, startaplarni ishga tushirish va boshqa innovatsion tashabbuslar boʻyicha qoʻshma loyihalarni birgalikda amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Agrar soha istiqbollari

Mamlakatimizda keyingi ikki-uch yilda qishloq xoʻjaligi sohasida klasterlar tashkil etishga alohida kirishildi. Bunday ezgu tashabbus fermer xoʻjaliklari faoliyatining kuchayishiga turkii berishi barobarida yuqori sifatlil meva-sabzavot mahsulotlarini Pokiston bozoriga katta miqdorda eksport qilishga imkoniyat bermoqda.

Masalan, Pokiston bozorlarida Oʻzbekistonda yetishtirilgan mahsulotlarga talab tobora ortmoqda. Buning natijasida ushbu mamlakatga meva-sabzavot eksporti oshdi. Qolaversa, Pokiston Oʻzbekistondan meva-sabzavot mahsulotlarini import qiluvchi yirik

davlatlar oʻntaligi (7-oʻrin)dan joy oldi.

Qishloq xoʻjaligi mahsulotlari eksportini yanada kengaytirish maqsadida Oʻzbekistonda Pokiston ishtirokida 20 dan ortiq savdo kompaniyalari va agrofimlar tashkil etildi. Hozir ular Oʻzbekiston meva-sabzavotlarini Janubiy Osiyo mamlakatlariga yetkazish, shuningdek, Pokistonning Karachi porti orqali Fors koʻrfaziga olib chiqish bilan shugʻullanmoqda. Mosh, noʻxat, loviya kabi dukkakli mahsulotlar hamda gilos, olma, oʻrik kabi hoʻl va quritilgan mevalar, qulupnay, qalampir, pomidor, qovun singari sabzavotu poliz neʼmatlari Pokiston bozorlarida xaridorgir boʻlmoqda.

Bundan tashqari, bu mamlakatning isteʼmol bozori Oʻzbekistonda yetishtirilgan dukkakli mahsulotlarni oliy sifat belgisi deb qabul qilayotir va zaminimizda pishib-yetilgan neʼmatlar Eron, Kanada, Myanma va Avstraliyadan keltiriladigan shunday tovarlar bilan toʻliq raqobatlashmoqda. Oʻz navbatida, Pokiston tomoni Markaziy Osiyo davlatlari bilan

aloqalarni yaxshilash maqsadida mintaga bozorlariga yiliga bir necha milliard dollarlik tayyor mahsulot – dori-darmon, kiyim-kechak hamda guruch va shakar eksport qilish imkoniyatiga ega.

Tinchlik orqali taraqqiyot sari

Shu oʻrinda aytish joizki, Afgʻonistonda barqaror tinchlik oʻrnatilishi keng xalqaro ahamiyatga ega boʻlib, mintaqaviy iqtisodiy aloqalarni hamda savdo faoliyatini yanada yaxshilaydi. Mintaqa mamlakatlari, xususan, Pokiston va Oʻzbekiston Afgʻonistonda muzokaralar, diplomatiya, muloqot hamda iqtisodiy rivojlanish orqali tinchlik oʻrnatishda muhim rol oʻynaydi.

Darhaqiqat, rasmiy Toshkentning Afgʻonistondagi siyosati avval boshdan rasmiy Kobul bilan iqtisodiy hamkorlik, transport va logistika loyihalarini muvaffaqiyatli amalga oshirish, shuningdek, mamlakatning taʼlim dasturlarini kengaytirish orqali afgʻon fuqarolari qalbini zabt etadigan yechim topishga asoslangan edi.

Davlatimiz rahbarining Afgʻoniston muammosini hal qilishga innovatsion yondashuvi ushbu mamlakatda tinchlik hamda barqarorlikni oʻrnatish strategiyasini ilgari surishga yordam berdi. Rasmiy Toshkent yirik xalqaro manfaatdor tomonlar bilan hamkorlik qiladi va iqtisodiyot, logistika, taʼlim sohalarida turli loyihalarni ilgari suradi. Oʻzbekistonning ushbu sohadagi noyob yutuqlaridan biri infratuzilma, energetika hamda savdo-sotiqni rivojlantirishga qaratilgan Afgʻoniston bilan iqtisodiy hamkorlikning mavjudligidir.

Oʻzbekiston Afgʻonistonga gumanitar yordamini yetkazib berish uchun Termiz shahrida bojxona punktini ochdi. Mozori-Sharif – Kobul uchastkasida mamlakatning Shimoli bilan Janubi oʻrtasida uzluksiz aloqani taʼminlash uchun 11 ta koʻprik qurdi.

Bundan tashqari, Oʻzbekiston Afgʻonistonga elektr energiyasini yetkazib beruvchi yetakchiga aylandi. Pokiston hukumati mamlakatimiz rahbarining mintaqada hamda undan tashqarida tinchlik va barqarorlikka erishish borasidagi saʼy-harakatlarini toʻliq qoʻllab-quvvatlamogda, shuningdek, ikki mamlakat oʻrtasida iqtisodiy hamkorlikka alohida ahamiyat beryapti. Bu esa doimo oʻz samalarini berib kelayotganiga barchamiz guvohmiz.

Sadritdin TUROBONOV,

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori, akademik.

(Davomi. Boshlanishi 1-betda).

Mazkur bogʻchalarda qoʻshimcha rahbar hamda tarbiyachi-yoʻriqchi shtatlari joriy qilinib, rahbar va pedagog xodimlarga tarif stavkasiga nisbatan 20 foiz miqdorida har oylik ustama toʻlanadi.

Maktabgacha va umumiy oʻrta taʼlim xizmatlarini koʻrsatuvchi nodavlat taʼlim tashkilotlariga ham bir yillik maktabga tayyorlov guruhlarini tashkil etishga ruxsat beriladi. Bu orqali taʼlim xizmatlari bozorida sogʻlom raqobatni kengaytirish va qamrovni oshirish maqsad qilingan.

Kadrlar tayyorlash masalalariga ham alohida eʼtibor qaratildi. 2026/2027 oʻquv yilidan boshlab pedagogika oliy taʼlim tashkilotlarida maktabgacha va boshlangʻich taʼlim yoʻnalishlari boʻyicha taʼlim dasturlari xalqaro ilgʻor tajribalarga mos ravishda

takomillashtiriladi. Shu bilan birga, amalda ishlab kelayotgan oʻrta maxsus maʼlumotli pedagog kadrlar uchun dual taʼlim (“5+1”) asosida bakalavrlar tayyorlash tizimi joriy etiladi.

2027/2028 oʻquv yilidan boshlab maktabga tayyorlov guruhlarida taʼlim-tarbiya olgan bolalarga davlat namunasidagi elektron sertifikat berilishi, mazkur maʼlumotlar umumiy oʻrta taʼlim toʻgʻrisidagi shahodatnomada qayd etilishi koʻzda tutilmoqda.

Taqdimotda maktabgacha taʼlim sohasida xususiy sektorni qoʻllab-quvvatlashga qaratilgan yangi imtiyozlar ham muhokama qilindi.

Maktabgacha taʼlim sohasida xususiy sektor ishtirokini kengaytirish maqsadida qamrov darajasi 80 foizdan past boʻlgan tuman va shaharlarda (Toshkent shahri bundan mustasno) tadbirkorlar uchun qator

qoʻllab-quvvatlash choralari joriy etiladi.

Jumladan, maktab va bogʻchalar hududidagi boʻsh yer maydonlarida davlat-xususiy sheriklik asosida bogʻchalar tashkil etilganda, ijara toʻlovlari 30 yilgacha undirilmaydi. Shuningdek, har bir tarbiyalanuvchi uchun davlat bogʻchalarida bir bolaga toʻgʻri keladigan xarajatning 50 foizi miqdorida subsidiya ajratiladi. Ushbu tartib 2024-yildan tashkil etilgan nodavlat bogʻchalarga ham tatbiq etiladi.

Qamrov darajasi past hududlarda bogʻcha va maktabdan tashqari joylarda quvvati kamida 150 oʻrinli nodavlat bogʻchalar tashkil etilsa, 7 yilgacha muddatga 5 milliard soʻmgacha imtiyozli kreditlar ajratiladi. Shu bilan birga, tarbiyachilarga oylik ish haqi toʻlash xarajatlari davlat bogʻchalarida belgilangan meʼyorlar asosida uch

yil davomida qoplab beriladi. Har 30 nafar bolaga bir nafar tarbiyachi shtati hisoblanadi.

Mazkur imtiyozlar yangi koʻp kvartirali uylarning birinchi qavatida tashkil etiladigan xususiy bogʻchalarga ham tatbiq etiladi.

Bundan tashqari, 2030-yil 1-yanvarga qadar quvvati 150 oʻrindan kam boʻlmagan nodavlat bogʻchalar tashkil etgan tadbirkorlar uchun ijtimoiy soliq stavkasi boʻyicha yengilliklar beriladi.

Davlatimiz rahbari taqdim etilgan takliflarni har tomonlama puxta ishlash chiqish, ularni bosqichma-bosqich joriy etish hamda maktabgacha taʼlim sifatini oshirish orqali bolalarning har tomonlama rivojlanishi uchun mustahkam asos yaratish muhimligini taʼkidladi. Mutasaddilarga tegishli topshiriqlar berildi.

OʻZA.

Uchrashuv

ANGLASHUV MEMORANDUMI IMZOLANDI



Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Senati (Majlis al-Aʼyan) Raisi Faysal Aqif Misqal al-Fayoz boshchiligidagi delegatsiya bilan uchrashdi.

Suhbat chogʻida Oʻzbekiston va Iordaniya oʻrtasida oʻzaro manfaatli munosabatlarni, xususan, parlamentlararo hamkorlikni rivojlantirish masalalari muhokama qilindi.

Taʼkidlanganidek, ikki mamlakat xalqlarini madaniy aloqalar va umumiy qadriyatlar bogʻlab turadi. Siyosiy, savdo-iqtisodiy, investitsiyaviy hamda madaniy-gumanitar sohalaridagi hamkorlik tobora kengayib bormoqda.

2025-yilda Iordaniya Podshohi Abdulla II ibn al-Husaynning Oʻzbekistonga ilk davlat tashrifi ikki tomonlama munosabatlar tarixida yangi bosqichni boshlab bergani alohida eʼtirof etildi. Ushbu tashrif doirasida imzolangan hujjatlar va qabul qilingan “Yoʻl xaritasi” izchil amalga oshirilayotgani aytiladi.

Shu bilan birga, Majlis al-Aʼyan Raisi Faysal Aqif Misqal al-Fayoz Oʻzbekistonning yuzlab falastinliklarga boshpana bergani, ularga koʻrsatayotgan ijtimoiy himoya va insonparvarlik yordamini yuksak baholab, Yaqin Sharq mamlakatlari nomidan samimiy tashakkur bildirdi.

Oliy Majlis Senati Axborot xizmati.

Oʻzbekiston – Iordaniya:

HAMKORLIK UFQLARI KENGAYMOQDA



Mamlakatimizda boʻlib turgan Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Senati (Majlis al-Aʼyan) Raisi Faysal Aqif Misqal al-Fayoz boshchiligidagi delegatsiya 4-fevral kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga tashrif buyurdi.

Muloqot avvalida Qonunchilik palatasi Spikeri Nuriddin Ismoilov mehmon tomoniga yangi tahrirdagi Konstitutsiya doirasida mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng koʻlamli islohotlar, Qonunchilik palatasining tarkibiy tuzilishi, uning qonun ijodkorligi va parlament nazorati yoʻnalishidagi faoliyati haqida batafsil maʼlumot berib oʻtdi.

Iordaniya parlamenti delegatsiyasi rahbari Prezident Shavkat Mirziyoyev rahbarligida soʻnggi toʻqqiz yilda Oʻzbekistonda barcha sohada olib borilayotgan islohotlarni yuqori baholadi va oʻtgan yil avgust oyida Iordaniya Hoshimiylar Podshohligi Podshohi Abdulla II ibn al-Husaynning Oʻzbekistonga davlat tashrifi mamlakatlarimiz oʻrtasidagi aloqalarni yanada faollashtirishga katta hissa qoʻshgani va ikki tomonlama hamkorlikda yangi bosqichni boshlab berganini alohida taʼkidladi.

Faysal Aqif Misqal al-Fayoz parlamentlararo hamkorlikni mustahkamlash yoʻllarini koʻrib chiqish imkoniyatidan mamnunligini bildirar ekan, bunday uchrashuvlar tajriba almashish, qoʻshma tashabbuslarni muhokama etish hamda barcha darajalarda konstruktiv muloqotni yoʻlga qoʻyish uchun muhim maydon boʻlib xizmat qilishini taʼkidladi.

Muloqot davomida tomonlar parlamentlararo aloqalarni mustahkamlash, jumladan, ikki mamlakat parlamentlari quyi palatalari vakillarining oʻzaro tashriflarini tashkil etish hamda qoʻmtalar oʻrtasidagi hamkorlikni kuchaytirish boʻyicha kelishib oldi.

Uchrashuv samimiy, ochiq va doʻstona ruhda oʻtdi.

“Xalq soʻzi”.

Qoraqalpogʻiston Respublikasining Nukus tumanida maishiy chiqindilarni qayta ishlashga ixtisoslashtirilgan yangi zavod qurilishining tamal toshi qoʻyildi.

MAHALLALAR XAVFSIZLIGI – OSOYISHTALIK OMILI

Oliy Majlis Senati aʼzolarining ish rejalariga muntazam ravishda hududlarga borib fuqarolar murojaatlarini oʻrganish, mahalliy darajada mavjud muammolarga yechim topish kabi vazifalar ham kiritilgan. Bu jarayonda mahalliy Kengashlar deputatlari, “mahalla yettiligi”, jamoatchilik vakillari hamda aholi bilan bevosita muloqotlar tashkil etilmoqda.



Tushayotgan murojaatlar va oʻrganishlar davomida aniqlanayotgan muammolarning bir qismi joyida hal etilayotgan boʻlsa, murakkab va qoʻshimcha oʻrganish talab qiluvchi masalalar Senat nazoratiga olinib, ularni koʻrib chiqishga tegishli davlat va xoʻjalik boshqaruvi organlari jalb etilmoqda.

Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qoʻmitasi raisi Qutbiddin Burhonov Yangihayot tumanida oʻrganish ishlarini olib bordi.

Mazkur jarayon doirasida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev raisligida Toshkent shahrida xavfsiz muhitni shakllantirish va jamoat xavfsizligini samarali taʼminlash boʻyicha oʻtkazilgan videoselektor yigʻilishida belgilangan vazifalarning tumandagi ijrosi atroflicha tahlil qilindi. Xususan, mahallalarda xavfsiz muhitni yaratish, jinoyatchilik va huquqbuzarliklarning oldini olish, fuqarolarning osoyishtaligini taʼminlash hamda aholi muammolarini

manzilli hal etish borasida profilaktika inspektorlari va “mahalla yettiligi” tomonidan amalga oshirilayotgan ishlar samaradorligi koʻrib chiqildi.

Senator Oʻzbekiston Soliq qoʻmitasi raisi, Toshkent davlat yuridik universiteti rektori, Yangihayot tumani hokimi hamda masʼul rahbarlar hamrohligida Xushnud va Yangi Darxon mahallalarida boʻlib, ushbu yoʻnalishda olib borilayotgan ishlarni oʻrgandi. Jarayonda mahallalardagi profilaktika inspektorlarining hisobotlari eshitildi.

Yakunda masʼullarga muammolarni mahallaning oʻzida hal etish, mahalla institutining rolini kuchaytirish, aholi xavfsizligini taʼminlashga qaratilgan ishlarni yangi bosqichga olib chiqish, profilaktika tadbirlarini kuchaytirish hamda mahallabay ishlash tizimini takomillashtirish yuzasidan tegishli tavsiya va topshiriqlar berildi.

Shuningdek, Senatning Sud-huquq masalalari va korupsiyaga qarshi kurashish qoʻmitasi raisi



Abdulkhakim Eshmuratov boshchiligidagi ishchi guruh ham Yashnobod tumani mahallalarida xavfsiz muhitni taʼminlash hamda korupsiyaga qarshi kurashish borasida amalga oshirilayotgan ishlarning borishi bilan qiziqdi.

Oʻrganishlar doirasida tumandagi “Argʻin” va “Xosiyatli” mahalla fuqarolar yigʻinlarida jinoyat hamda huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish, profilaktik chora-tadbirlar samaradorligini oshirish, mahallalarda xavfsiz muhitni shakllantirishga qaratilgan ishlar koʻrib chiqildi.

Kriminogen vaziyat nisbatan ogʻir boʻlgan mahallalarda jinoyatchilikning oldini olishga qaratilgan manzilli chora-tadbirlar, aholi bilan ishlashga asoslangan ijtimoiy profilaktika mexanizmlarining amaliy samaradorligi tahlil qilindi. Bu borada

profilaktika inspektorlari, mahalla faollari va boshqa masʼul tuzilmalar oʻrtasidagi hamkorlik holatiga alohida eʼtibor qaratildi.

Bundan tashqari, mahallalarda videokuzatuv kameralari, domofon tizimlari va “tashvish tugmalari” oʻrnatilishi holati oʻrganildi. Ishchi guruh tomonidan savdo va xizmat koʻrsatish obyektlarini raqamlashtirish orqali “yashirin iqtisodiyot” ulushini qisqartirish, maishiy korupsiya holatlarining oldini olish hamda tadbirkorlar uchun qulay muhit yaratish yuzasidan tegishli tavsiyalar berildi. Aholini qiynab kelayotgan muammolar yuzasidan fuqarolar bilan bevosita suhbatlar oʻtkazildi.

Oʻrganish va tahlillar natijalari “mahalla yettiligi”, profilaktika inspektorlari va boshqa masʼul xodimlar ishtirokida muhokama qilinib, aholi xavfsizligini taʼminlashda tizimli yondashuvni yanada kuchaytirish, aniqlangan muammolarni bartaraf etish va profilaktik chora-tadbirlar samaradorligini oshirish boʻyicha tegishli tavsiya va koʻrsatmalar berildi.

“Xalq soʻzi”.

SUVNI TEJASH – UMUMINSONIY MASʼULIYAT

Bugungi oʻta murakkab va sinovli davrda suv masalasi global barqarorlik, oziq-ovqat xavfsizligi va kelajak avlod taqdiri bilan bogʻliq strategik omilga aylandi. Iqlim oʻzgarishi, aholi sonining ortishi va resurslarga bosim kuchayib borayotgan bunday sharoitda suvga munosabat taraqqiyotga munosabat darajasini belgilab bermoqda. Endi uni tejash umuminsoniy masʼuliyatdir.

Munosabat



Mamlakatimizda ushbu yoʻnalishdagi masalaga uzoq muddatli taraqqiyot strategiyasining ajralmas qismi sifatida qaralmoqda. Soʻnggi yillarda, ayniqsa, qishloq xoʻjaligida suvdan samarali foydalanish masalasi davlat siyosati darajasiga koʻtarildi.

Kuni kecha davlatimiz rahbariga suv resurslaridan oqilona foydalanish va suv tejovchi texnologiyalarni yanada keng joriy qilish boʻyicha taqdim etilgan yangi takliflar ham bu yoʻnalishdagi ishlarning mantiqiy davomi boʻldi.

Raqamlar shuni koʻrsatmoqdaki, bugun suv tejovchi texnologiyalar joriy qilingan maydonlar 2,6 million gektarga yetgan. Bu – sugʻoriladigan yerlarning qariyb 60 foizi degani. Vaholanki, 2017-yilgacha bu koʻrsatkich atigi 19 ming gektar edi. Eng muhimi, amalga oshirilgan ishlar natijasida har yili milliardlab kub metr suv tejalmogʻda. Bu nafaqat iqtisodiy samara, balki ekologik barqarorlik ham demakdir.

Oldinga qoʻyilgan yangi marralar yanada katta. Yaqin yillarda suv tejovchi texnologiyalar qamrovini yana yuz minglab gektarlarga kengaytirish, umumiy ulushni 80 foizga yetkazish rejalashtirilmoqda. Ushbu islohotlar suv taʼminoti ogʻir hududlardagi fermerlar uchun qoʻshimcha imkoniyat yaratadi, takroriy ekinlar ekishga zamin boʻladi.

Eʼtiborli jihati shundaki, jarayon endilikda faqat umumiy qoʻllab-quvvatlash bilan cheklanmaydi. Yangi mexanizmlar taklif etilmoqda: suv bilan taʼminlanganlik darajasiga qarab soliq va subsidiya miqdorini belgilash, ogʻir hududlarda yuqori koʻeffitsiyent qoʻllash, oʻz mablagʻi hisobidan texnologiya joriy qilayotgan tashabbuskorlarga oldindan subsidiya ajratish kabi yondashuvlar qoʻllaniladi. Bunday yondashuv adolati va manzilli qoʻllab-quvvatlash tizimini shakllantiradi.

Shuningdek, tomchilatib va diskret sugʻorishni faqat ayrim ekin turlari bilan cheklamasdan, boshqoq don maydonlariga ham tatbiq etish uchun subsidiya berish tartibi joriy qilinayotgan fermerlarning qiziqishini oshiradi. Kredit foizlarining bir qismini qoplab berish, kredit mablagʻlarini

mavsumdan oldin – noyabr oyidan ajratish amaliyoti esa rejali ishlashga xizmat qiladi.

Sifat va natija masalasi ham chetda qolmayapti. Endi suv tejovchi texnologiyalarni oʻrnatgan pudrat tashkilotlari kamida ikki yil kafolat va besh yil servis xizmati koʻrsatishi shart qilib belgilanmoqda. “Oʻrnatdik va ketdik” degan eskicha yondashuvdan voz kechilib, uzoq muddatli samaraga ishlash tizimi ishga tushirilayotgani, ayniqsa, ahamiyatli.

Nazorat tizimi ham zamonaviylashmoqda. “Aqlli” suv hisoblagichlar, raqamli axborot tizimlari, dron orqali monitoring, tekshiruvlarda yonkameralardan foydalanish kabi chora-tadbirlarning barchasi shaffoflikni oshiradi. Eng muhim qoidalardan biri – subsidiya olib, suv tejovchi texnologiya oʻrnatgan holda uni ishlatmaslik suvdan oʻzboishimchalik bilan foydalanish sifatida baholanishi belgilanmoqda. Bu intizomni mustahkamlashga, shuningdek, suv tejovchi texnologiyalarni oʻrnatish bilan bogʻliq nizolarda nazorat organlarini sudga murojaat qilishda davlat boʻjidan ozod etish tashabbusi sohada qonuniylikni taʼminlash imkoniyatini beradi.

Shu oʻrinda aytish kerakki, parlament va deputatlarning bu jarayonda ishtiroki, masʼuliyati bor. Joylarda oʻtkazilayotgan oʻrganishlar, fermer va suvdan foydalanuvchilar bilan uchrashuvlar orqali muammolarni bevosita oʻrganib, tahlillar oʻtkazamiz. Qolaversa, bu boradagi qonunchilikni takomillashtirish, imtiyoz va kafolatlarni mustahkamlash, halol tadbirkor manfaatini himoya qilish boʻyicha takliflar ham shu jarayonda shakllanadi.

Bugun bir hayotiy haqiqat tobora oʻz isbotini topmoqda: suvni asragan jamiyat – oʻz kelajagini asragan jamiyat. Mazkur masala endi faqat iqtisodiy samara yoki hosildorlik bilan oʻlchanmaydi. U yerning unumdorligi, qishloq ahlining daromadi, oziq-ovqat xavfsizligi va ekologik muvozanat bilan uzviy bogʻliq strategik qadriyatga aylanadi. Shu bois suv tejovchi texnologiyalarni joriy etish, ilmiy yondashuv va zamonaviy boshqaruvi qaror topirish bugungi kunning kechiktirib boʻlmaydigan talabidir.

Hilola YUSUPOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

Mushohada

YUKSALISHNING MAʼNAVIY TAYANCHI

Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan besh muhim tashabbus jamiyatda maʼnaviy qadriyatlar va maʼrifatni yuksaltirish, yoshlarda mustaqil fikrlash qobiliyatini rivojlantirish hamda intellektual salohiyatni oshirish uchun mustahkam zamin yaratdi.

Mazkur tashabbuslarning toʻrtinchisi – aholi, ayniqsa, yoshlar oʻrtasida kitobxonlikni mamlakatimizga qaratilgan bilan ahamiyatga ega. Bu yoʻnalishdagi amaliy ishlar natijasida kitobga boʻlgan munosabat jamiyat hayotida yangi mazmun bilan boyib bormoqda. Ayniqsa, yigit-qizlar oʻrtasida tashkil etilayotgan “Yosh kitobxon” koʻrik-tanlovlari minglab oʻquvchi va talabalarning mutolaa qiziqishini oshirishga xizmat qilmoqda.

Prezidentimizning 2026-yil 15-yanvardagi “Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va aholi oʻrtasida kitob oʻqishga qiziqishni oshirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida”gi qarori sohadagi islohotlarni yangi bosqichga olib chiqdi. Binobarin, unda aholi oʻrtasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirishga qaratilgan aniq vazifalar, 2026 – 2030-yillarda bir kishi hisobiga toʻgʻri keladigan oʻqilgan kitoblar sonini oʻrtacha 10 taga yetkazish kabi ustuvor maqsadlar belgilandi.

Qarorda yoshlarni ragʻbatlantirish mexanizmlariga ham alohida eʼtibor qaratildi. Jumladan, Yoshlar ishlari agentligi vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda ikki oy muddatda eng koʻp kitob mutolaa qilgan oʻquvchi va talabalarni aniqlash tartibini tasdiqlaydi. Ushbu tizim orqali

“TOP – 100”talikka kirgan har bir oʻquvchi va talabaga Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamgʻarmasi mablagʻlari hisobidan bazaviy hisoblash miqdorining 25 baravari darajasida pul mukofoti berilishi nazarda tutilmoqda.

Qaror kitobxonlik sohasini moliyaviy qoʻllab-quvvatlash masalasida ham yangi imkoniyatlarni ochib beradi. Yoshlar ishlari agentligi huzurida Kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish jamgʻarmasining tashkil etilishi yosh ijodkorlar asarlarini nashr qilish, bolalar adabiyotini ravnaq toptirish hamda isteʼdodli mualliflarni ragʻbatlantirishda moliyaviy tayanchga aylanadi.

Shu bilan birga, hujjatda milliy va jahon adabiyoti oʻrtasidagi maʼnaviy aloqalarni mustahkamlashga qaratilgan choralar ham oʻz ifodasini topgan. Xorijiy adabiyotlarni oʻzbek tiliga, milliy asarlarni esa xorijiy tillarga oʻgʻirish xarajatlarining bir qismini qoplab berish milliy adabiyotimizning xalqaro maydonga chiqishiga xizmat qiladi.

Aholi uchun qulay mutolaa muhitini yaratish masalasi ham davlat siyosatining muhim yoʻnalishi sifatida belgilandi. 2026-yil 1-fevraldan boshlab “Kitob – maʼrifat manbai” dasturining amalga oshirilishi, davlat



organlarining kitobxonlikka oid axborotlarini ijtimoiy reklama sifatida eʼtirof etish, shuningdek, avtobus, metro, poyezd va samolyotlarda “Mutolaa” platformasidan simsiz yoki mobil internet orqali foydalanish imkoniyatining yaratilishi kitobni inson hayotiga yanada yaqinlashtiradi.

Kitobxonlik infratuzilmasini hududlar kesimida rivojlantirish maqsadida ham muhim chora-tadbirlar belgilandi. Umumtaʼlim muassasalarida “Jadidlar izidan” kitobxonlik toʻgaraklarining tashkil etilishi esa yosh avlodni milliy maʼnaviy meros ruhida tarbiyalashga xizmat qilmoqda. Shuningdek, vazirlik va idoralarda kasbiy adabiyotlar roʻyxatini shakllantirish, har oy kitobxonlik soatlari oʻtkazish, ichki kitobxonlik reytingini joriy etish hamda eng faol xodimlarni moddiy ragʻbatlantirish amaliyoti mutolaani ish muhitining ajralmas qismiga aylantirilmogʻda.

Kitob inson tafakkurini boyitadi, shaxs kamolotiga zamin yaratadi, jamiyatda maʼnaviy barqarorlikni taʼminlaydi hamda bilimli, masʼuliyatli va faol fuqarolar avlodini shakllantiradi.

Muhammadjon VALIYEV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.

TAʼLIM VA BIZNES UYGʻUNLIGI



Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev Oliy Majlis va Oʻzbekiston xalqiga Murojaatnomasida 2026-yilda amalga oshiriladigan eng muhim yoʻnalishlardan biri – kasblarni rivojlantirish va yangi mehnat bozori arxitekturasini yaratishdan iborat ekanini taʼkidladi.

Mutolaa

Hozirgi vaqtda yangi texnologiyalar, raqamlashtirish hamda sunʼiy intellekt hayotimizga keskin kirib kelayotgan davrda raqobatcha chidamli boʻlish uchun malakali kasb egalari va mutaxassislarga aylanish, ayniqsa, xususiy biznes hamda tadbirkorlik tizimida muhim ahamiyatga ega. Zamon talabiga javob beruvchi kadrlarni tayyorlash, ularning malakasini oshirish, biznes bilan uygʻunlashtirish hamda bozor, isteʼmolchi ehtiyojlarini qondirishda marketologlarning oʻrni kattadir.

Bu borada Oʻzbekiston marketing uyushmasi vakillari Diyor Mirzaahmedov, Baxtiyor Toʻxtayev va Malika Usmonova tomonidan tayyorlangan “Biznes va marketing” ilmiy-ommabop asari yuqorida

taʼkidlangan vazifalarning maʼlum bir qismini amalga oshirishga xizmat qiladi.

Mazkur kitob, asosan, tadbirkorlarga moʻljallangan boʻlib, unda marketing sohasiga aloqador 20 ta dolzarb savolga toʻliq javob berilgan. Mualliflar uyushmaning tajribasidan foydalangan holda, mamlakatimizda tadbirkorlik yoʻnalishidagi yutuqlar va xorijiy ekspertlarning tavsiyalari asosida marketing sohasidagi dolzarb savollarga javob topishga intilgan. Va ushbu kitob maʼlum tajribayu koʻnikmaga ega boʻlgan hamda oʻz biznesini yangi darajaga olib chiqishga va barqaror rivojlanishga intiluvchi tadbirkorlar uchun moʻljallangan.

Taʼkidlash joizki, marketing faqatgina reklama yoki savdo emas, balki bozorni,

hamkorlar, raqobatchilar, eng asosiysi, isteʼmolchilarning ehtiyojlarini chuqur tushunish va strategik rejalashtirish, iqtisodiyotning asosiy talablaridan foydalanish va bozor resurslardan oqilona foydalanib, tobora oshib borayotgan ehtiyojlarni toʻlaroq qondirishdan iborat.

Fikrimizcha, hali marketing atamalarini talqin etishda maʼlum tushuntirish ishlari olib borilishi juda muhim. Masalan, bank, sogʻliqni saqlash, savdo tizimida har bir isteʼmolchiga “mijoz” deb murojaat qilinadi. Bunday holat marketing yondashuvi boʻyicha oʻrinli emas. Bizning tasavvurimizda barcha ehtiyojmand aholi isteʼmolchi boʻlsa, uning aksariyat qismi xaridorga aylanadi. Yaʼni iqtisodiy imkoniyatga ega boʻlgan isteʼmolchi bozor yoki doʻkonda xarid qilsa, xaridorga aylanadi.

Agar xaridorga ushbu xizmat koʻrsatuvchi subyektlar maʼqul kelsa, uning xohish-istaklariga mos tushsa, unda mijozga, doimiy xaridorga aylanishi mumkin. Negaki, mijoz boʻlish uchun “isteʼmolchi – xaridor – mijoz” tizimi mavjud boʻlib, bunda savdo yoki

boshqa xizmat koʻrsatuvchi biznes vakillariga mijoz, boshqachga aytisak, doimiy xaridor oʻddiy isteʼmolchi yoki xaridorga nisbatan 5-6 marotaba foydaliroq boʻlib, bu reklama, ular bilan ishlash va boshqa xarajatlar miqdorini kamaytiradi.

Har bir biznes yurituvchining maqsadi ham koʻproq foyda olishga intilishdan iborat. Ammo uni amalga oshirish uchun, yuqorida taʼkidlanganidek, koʻproq xaridorni mijozga aylantirishga harakat qilish lozim. Shu maʼnoda, “Biznes va marketing” kitobi biznes yurituvchilar va keng ommaga moʻljallangan, hozirgi kun talablariga mos kelishi hamda marketing sohasida nazariy-amaliy bilimlarni oʻzlashtirishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir. Zero, marketing faoliyatining asosiy maqsadlaridan biri – isteʼmolchilarning isteʼmol madaniyatini oshirish asosida mavjud resurslardan oqilona foydalanish, atrof-muhitga kammroq zarar yetkazish, kelajak avlod oldidagi masʼuliyatni yanada oshirishni taʼminlashdan iborat.

Murat IKRAMOV,
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti professori.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida

Mablagʻlar sarflanishi qay darajada shaffof?

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Korupsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qoʻmitasida byudjet va byudjetdan tashqari mablagʻlar hisobidan belgilangan maqsadli koʻrsatkichlarga erishish holati hamda mablagʻlarning sarflanishi boʻyicha Adliya vazirligining axboroti eshitildi.

Deputatlar indikatorlar kesimida oʻzlashtirilgan mablagʻlarning maqsadli sarflangani, notarial idoralardagi elektron hujjat almashinuvi, hududiy adliya boʻlimlarida yuridik xizmat koʻrsatishning qamrab olingani, litsenziyalash va ruxsat berish hujjatlarini qisqartirish hamda soddalashtirishning holatiga alohida eʼtibor qaratildi.

Shuningdek, adliya organlarining qonunchilik hujjatlarini maqbullashtirish, umumiy tuskadi, toʻgʻridan-toʻgʻri amal qiluvchi qonunlarning ulushini oshirish, koʻrsatilgan davlat xizmatlari va advokatlar sonini sezilarli koʻpaytirishga erishish, sud ekspertizasining yangi turlarini joriy etish, qabul qilingan meʼyoriy-huquqiy hujjatlarini foydalanuvchilarga yetkazib berish va tanishtirish boʻyicha targʻibot-tashviquot tadbirlarining samaradorligi eʼtibor markazida boʻldi.

Yigʻilishda deputatlar vazirlik tomonidan rivojlantirish dasturlari va maqsadli indikatorlarga erishish uchun rejalashtirilgan mablaqqa nisbatan koʻproq mablagʻ ajratilganiga eʼtibor qaratdi. Ularning manbalari hamda ajratilish sabablari tahlil qilindi.

Qoʻmita majlislarida vazirlik va idoralarning hisobotlarini muntazam muhokama qilib borish, faoliyat samaradorligini baholash hamda kamchiliklarni bartaraf etish boʻyicha zarur choralar koʻrish yuzasidan vazifalar belgilab olindi.

Vazirliklarga zarur tavsiyalar berildi

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Agrar va suv xoʻjaligi masalalari hamda Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qoʻmitalarining kengaytirilgan yigʻilishi boʻlib oʻtdi.

Unda Qishloq xoʻjaligi va Suv xoʻjaligi vazirliklarining “Byudjet mablagʻlaridan samarali foydalanish, shuningdek, maqsadli indikatorlarning bajarilishi toʻgʻrisida”gi axborotlari eshitildi.

Taʼkidlanganidek, dunyoda kechayotgan global iqlim oʻzgarishi agrar va suv xoʻjaligi sohasida yangi imkoniyatlarni yaratish zaruratini yuzaga keltirmogʻda. Mamlakatimizda ushbu sohalarida katta oʻzgarishlar roʻy berib, zamonaviy boshqaruvi va tejamkor usullarni qoʻllash maqsadida tizimli ravishda byudjet mablagʻlari yoʻnaltirib borilmoqda.

Qishloq xoʻjaligi vazirligi axborotiga koʻra, 2025-yilda respublika byudjetidan ajratilgan rejali mablagʻlar vazirlik tizimidagi 118 ta muassasani moliyalashtirish, vazirlik markaziy apparati va uning tizimidagi tashkilotlarni saqlash bilan bogʻliq hamda ularni yuksaltirish dasturlari uchun xarajatlar, shuningdek, Agrosanoatni rivojlantirish va qoʻllab-quvvatlash davlat maqsadli jamgʻarmasiga yoʻnaltirilgan.

Muhokama davomida deputatlar tomonidan qishloq xoʻjaligi mahsulotlari hajmi rejaiga koʻra ijro qilinmagani aytiladi. Shuningdek, bevosita natija koʻrsatkichi boʻlgan respublika miqyosida qishloq xoʻjaligi ekinlarida biologik himoya usuli qoʻllangan maydonlar boʻyicha prognoz rejasining bajarilmagani tanqid ostiga olindi.

Suv xoʻjaligi vazirligi axborotida keltirilganidek, vazirlikka rivojlantirish dasturi va maqsadli indikatorlar uchun suv xoʻjaligi sohasida byudjet mablagʻlaridan samarali foydalanish, oziq-ovqat xavfsizligini taʼminlash, aholi turmush farovonligini yanada oshirish maqsadida zarur mablagʻ ajratilgan.

Deputatlar vazirlik tomonidan bajarilgan ishlar bilan birga, ayrim rivojlantirish dasturlari va maqsadli indikatorlar koʻrsatkichlari rejaiga nisbatan yetarli darajada ijrosi bajarilmagan holatlarning asoslari keltirilmagani qayd etdi.

Yigʻilishda davlat mablagʻlaridan samarali foydalanish, bunda maqsadli indikatorlar ijrosiga qaratilgan aniq chora-tadbirlarni belgilab olish va uni muntazam amalga oshirish boʻyicha zarur tavsiyalar berildi.

Yakunda kun tartibidagi masalalar yuzasidan kelgusida amalga oshirilishi lozim boʻlgan vazifalar belgilab olinib, tegishli qarorlar qabul qilindi.

“Xalq soʻzi”.

KASBILIK DEHQON
BANANZORI

Mamlakatimizda tomorqachilik izchil rivojlangani sayin yurtdoshlarimizda bu sohadagi bilim va tajriba ham tobora boyib bormoqda. Zamonaviy texnologiyalardan samarali foydalanib, xaridorgir va noyob mahsulotlar yetishtirish orqali hatto bir parcha yerdan ham millionlab daromad olayotgan xonadonlar soni ortayotgani buning isboti.

Kasbi tumanining Jizza

mahallasida tomorqachilik yaxshi yo'lga qo'yilgan. Bu yerda oltmishga yaqin xonadon egalari issiqxona sharoitida limon, apelsin, mandarin, banan kabi tropik mevalarni parvarishlab, mo'may daromad topmoqda. Ana shunday mehnatkash dehqonlardan biri shu mahallada istiqomat qiluvchi To'ra bobo Doniyorov bo'lib, u bananchilikni oilaning asosiy daromad manbaiga aylantirgan.

– Bir necha yil avval Andijon viloyatidan 250 tup banan ko'chatini olib kelib, issiqxonaga ekip ko'rdik, – deydi To'ra bobo. – O'tgan yildan boshlab bananlarimiz hosilga kirdi. Har bir tupdan 20 – 30 kilogrammgacha hosil olaymiz. Shu bilan birga, issiqxonada ming tupdan ziyod banan ko'chatlarini yetishtirishni ham yo'lga qo'ydik. Kelgusida ko'chatchilikni yanada rivojlantirishni rejalashtiryapmiz.

Darhaqiqat, tomorqa – rizq-nasiba, barakali daromad manbai. Bu To'ra Doniyorov turmushi va faoliyati misolida yana bir bor o'z aksini topmoqda.

Jahongir BOYMURODOV
("Xalq so'zi").

UCHQO'RG'ONLIK
YOSHLARNING
ISTIQBOLLI LOYIHASI

Uchqo'rg'on tumanidagi ixtisoslashtirilgan maktabning iqtidorli o'quvchilari – Nafisa Dilmurodova, Muhammaddiz Mamonjonov, Faxriddin Fayziyev qishloq xo'jaligi sohasida muhim amaliy ahamiyatga ega bo'lgan "AgroTech" qurilmasini yaratdi. Mazkur loyha urug'larni 48 soat ichida ekishga tayyor ko'chat holatiga keltirish imkonini beradi.

An'anaviy urug' undirish usullariga muqobil ushbu qurilma zamonaviy agrotekhnologiyalarga asoslangani bilan ajralib turadi. "AgroTech" ishlash jarayonida dastlab urug'lar 22 – 25°C haroratda 24 soat davomida undiriladi. Keyingi bosqichda esa maxsus fitled nurlar yordamida kuchaytirilgan fotosintez jarayoni yo'lga qo'yilib, o'sish sur'ati sezilarli darajada tezlashtiriladi. Oradan bir kun o'tib to'liq shakllangan va ekishga tayyor ko'chatlar olinadi.

– Yangi qurilmada mikroiklim ko'rsatkichlarini nazorat qilish uchun harorat va namlik sensoridan foydalandik, – deydi Nafisa Dilmurodova. – Barcha jarayon to'liq avtomatlashtirilgan bo'lib, boshqaruv "Arduino Mega 2560" platformasi orqali amalga oshiriladi. O'simliklarning o'sishini tahlil qilish hamda natijalarni prognozlash esa sun'iy intellekt elementlari asosida boshqariladi.

Qudratilla NAJMIDDINOV
("Xalq so'zi").

TO'YIMLI OZUQA
YETISHTIRISH
TEKNOLOGIYASI

Olot tumanidagi Chovdur mahallasida peshqadam tadbirkorlardan biri bo'lgan Rustam Samandarovning chorva fermasida ayni qish-qirovli kunlarda ham yam-yashil maysalar barq urib o'syapti. Ya'ni ishbiplanom maxsus binoda donni namlatgan holda gidroponika usulida yashil ozuqa yetishtirmoqda.

Hisob-kitoblarga qaraganda, bir kilogramm bug'doydan yetti kilogramm yashil ozuqa olish mumkin. Atigi yetti-sakkiz kunni talab qiladigan bu usul sharoifati bilan o'nlab gektar ekin maydoni, suvni tejab qolish imkoniyati yuzaga kelyapti. Negaki, gidroponikada suv ekinning ildiz qismiga berilsa, kifoya. Qolaversa, bunday usulda yetishtirilgan ozuqa juda to'yimli. Uning chorva mollarida hazm bo'lish darajasi 90 – 95 foizni tashkil etadi. Boshqacha aytganda, ozuqa nishxo'rdga chiqmaydi.

Darvoqe, R. Samandarovning fermasida "Arashan" zotiga mansub 100 boshdan ziyod qo'yalar boqilyapti. E'tiborlisi, biz ko'rib odatlangan qo'ylardan farqi – ular ikki yil davomida uch bor qo'zlaydi. Shunday zotli uch oylik qo'zining bozordagi bahosi esa to't million so'mdan kam emas.

Istam IBROHIMOV
("Xalq so'zi").

Uchinchi Renessans:

BUYUK SHOIR DAHOSIDAN KUCH OLGAN G'OYA



Tarix haqiqati shuni ko'rsatadiki, dunyodagi hech bir sivilizatsiya, hech qaysi Renessans jarayoni o'z-o'zidan paydo bo'lgan emas. U, albatta, mustahkam ma'naviy ildizga, qudratli tafakkur quvvatiga tayanadi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev rahbarligida bunyod etilayotgan Yangi O'zbekiston va ko'zlanayotgan uchinchi Renessansning ham aniq tarixiy va g'oyaviy asosi bor. Bu – besh yarim asr muqaddam bashariyatga "Komil inson" va "Adolatli jamiyat" andozasini taqdim etgan Alisher Navoiy fenomenidir.

Bugun O'zbekiston o'z taraqqiyotining hal qiluvchi bosqichida turibdi. Davlatimiz rahbari tomonidan ilgari surilgan "Uchinchi Renessans" milliy g'oyasi jamiyatimiz oldiga ulkan vazifalarni qo'yimoqda. Xo'sh,

Alisher Navoiy tavalludining 585-yilligiga

"Inson qadri" tamoyilining
tarixiy ildizi

Bugungi kunda Yangi O'zbekiston davlatchiligining bosh g'oyasi, barcha islohotlarning markaziy o'zagi bitta muqaddas tamoyilda mujassam: "Inson qadri uchun!"

Prezidentimizning "Xalq davlat idoralari emas, davlat idoralari xalqimizga xizmat qilishi kerak" degan mashhur da'vati jamiyatimiz hayotini tubdan o'zgartirdi. Teran nazar tashlasak, bu demokratik tamoyilning ildizlari bundan besh yarim asr muqaddam hazrat Navoiy tomonidan ko'tarilgan ezgu tashabbuslarga borib taqaladi.

Navoiy dahosi shundaki, u insonning qadrini mansab, boyluk yoki nasab bilan emas, balki uning jamiyatga keltirgan foydasi, o'zgalari dardiga darmon bo'lishi bilan o'lchagan. Uning:

Odamiy ersang, demagil odami,

Onikim, yo'q xalq g'amidin g'ami,

degan o'lmas satrlari shunchaki she'riy misra emas, balki komil inson va odilona jamiyatning "Axloq kodeksi"dir.

Bugungi kunda rahbarlarning mahallama-mahalla yurib, odamlarning muammosini o'rganishi, "temir daftar", "ayollar daftar", "yoshlar daftar" kabi tizimlarning yaratilishi – buyuk shoir orzu qilgan "insonparvar davlat" modelining amaliy ifodasi. Navoiy o'z davrida muhtojlarga yordam berish uchun "Vaqqiylar" tashkil etib, o'z mablag'idan ko'priklar, rabotlar va shifoxonalar qurdirgani tarixdan ma'lum. Bugungi ijtimoiy himoya siyosati ana shu tarixiy an'ananing mantiqiy va zamonaviy davomidir.

Demak, mutafakkir bobomiz asarlari biz uchun faqat badiiy zavq manbai emas, balki ma'naviy Konstitutsiya vazifasini o'tamoqda. U bizga eslatib turadi: davlatning kuchi uning xazinasiidagi oltin bilan emas, balki fuqarolarining baxti, tinchligi va farovonligi bilan o'lchanadi. Xalqni rozi qilish tamoyili buyuk ajdodimiz vasiyatiga eng katta sadoqatdir.

Ta'lim va innovatsiya: tamaddun
drayveri

Moziyga boqar ekanmiz, dunyodagi har ikkala Uygonish davri ham aynan ilm-fanning yuksalishi, maorifning keng quloq yo'yishi evaziga sodir bo'lgani ayonlashadi. Alisher Navoiy bu haqiqatni teran anglagan holda, o'z davrida nafaqat qalam ahliga, balki olimlar, me'morlar, tabiblar va musiqachilarga ham homiylik qilgan haqiqiy ma'rifatparvar edi.

Uning tashabbusi va o'z mablag'larini hisobidan Hirotda barpo etilgan "Ixtosiyat", "Nizomiya" kabi madrasalar, "Shifo'iyya" shifoxonasi o'sha davrning o'ziga xos akademiyalari vazifasini o'tagan. Navoiy quruq yodlashga asoslangan ilmiy qoralarab, insonga va jamiyatga foydasi tegadigan bilimni ulug'lagan. Uning "Mahbub ul-qulub" asaridagi:

Ilm o'qub qilmag'on amal maqbul,

Dona sochib ko'tarmadi mahsul

(Mazmuni: ilmi o'rganib, unga amal qilgan inson yerga urug' sochib, hosil olmagan dehqon kabidir) degan o'lmas hikmati bugungi raqamli iqtisodiyot asrida har qachongidan ham dolzarb. Bugun bizga shunchaki diplomli kadrlar emas, balki olgan bilimni xalqqa nafi tegadigan real loyihaga aylantira oladigan innovatorlar kerak.

Aynan shu nuqtayi nazardan qaraganda, so'nggi yillarda yurtimizda Prezidentimiz tashabbusi bilan tashkil etilgan Prezident maktablari, ijod maktablari va Yangi O'zbekiston universiteti Alisher Navoiy boshlagan ma'rifat yo'lining yangi, zamonaviy bosqichidir. Bu ta'lim maskanlarida tarbiyalanayotgan yoshlar uchinchi Renessansning asosiy drayverlari bo'ladi.

Shuningdek, bugun ulug' shoir merosiga munosabat ham innovatsion tus olmoqda. O'zbekistondagi islom sivilizatsiyasi markazida buyuk mutafakkir uchun maxsus muhtasham zal ajratilishi, uning nodir qo'lyozmalari

bu ulug'vor binoni qanday barpo etamiz? Uning poydevori faqat iqtisodiy raqamlar yoki zamonaviy texnologiyalardan iboratmi?

Yo'q, albatta. Har qanday yuksalishning ibtidosi – tafakkur yangilanishi. Biz bugun qurayotgan demokratik jamiyatning nazariy chizmalari Alisher Navoiy g'oyalarga uyg'undir. Shu ma'noda, bu ulug' siymo biz uchun shunchaki faxrlanish obyekti yoki muzey eksponatli emas. Navoiy dahosi – bugungi islohotlarimizning ma'naviy drayveri, ertangi kunimizning g'oyaviy kompassi. Shu bois ulug' ajdodimiz merosiga munosabat bu kelajakka munosabatdir.



«Баҳром мовий исрада». Камолiddин Бейзод рафбарлигидаги Гирот рассомлик мактаби намояндалари икхиди.

bugungi davlat xizmatchisi – xoh u vazir bo'lsin, xoh hokim – o'z faoliyatida Navoiy chizgan "Komil inson" andozasiga intilishi shart. Ulug' mutafakkir ta'бири bilan aytganda: "Ilgimdan kelgancha zulm tig'in ushotib, mazlum jarohatiga intiqom marhamin qo'ydim", degan fidoyilik tuyg'usi har bir rahbarning qalbidan bo'lmo'g'i lozim.

Umuman, Navoiy asarlaridagi siyosiy-huquqiy qarashlar – bugungi davlat xizmatchisi uchun tayyor qo'llanmadir. Zero, adolat va qonun ustuvorligi ta'minlangan yurtdagina Renessans haqiqatga aylanadi.

Milliy o'zlik va global e'tirof

Hozirgi shiddatli globallashuv davrida, madaniyatlar qorishib ketayotgan bir paytda, har qanday mustaqil davlat oldida turgan eng strategik vazifa – o'z milliy qiyofasini, tili va o'zligini saqlab qolish. Agar iqtisodiyot va armiya mamlakatning jismoniy qudrati bo'lsa, til va adabiyot uning ruhi va ma'naviy immuniteti.

Alisher Navoiy bu haqiqatni o'z davridayoq strategik darajada anglagan buyuk siyosatchi edi. XV asrda fors tili hukmron bo'lib turgan bir sharoitda, u o'zining "Muhokamat ul-lug'atayn" ilmiy asarini yozib, jasorat ko'rsatdi. Shoir o'z ona tilini "xazinabonsiz qolgan xazina"ga, "pardosiz go'zalga o'xshatib, uning naqadar boy va har qanday murakkab falsafiy fikrni ifodalashga qodir ekanligini isbotlab berdi. Mutafakkir turkiy tili ni ilmi va san'at tili darajasiga ko'tardi.

Bugungi Yangi O'zbekistonda davlat tilining nufuzini oshirish, lotin yozuviga asoslangan o'zbek alifbosini isloh qilish bo'yicha olib borilayotgan qat'iy siyosat Navoiy bobomiz boshlagan kurashning mantiqiy davomidir.

Yaqin tariximizdagi eng ulug'vor voqeik – Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining oliy minbaridan turib, sof o'zbek tilida nutq so'zlashi bo'ldi. Dunyoning eng yirik siyosiy sahnasida Navoiy tilining jaranglashi – bu shunchaki nutq emas, balki 38 millionlik xalqning g'ururi va buyuk shoir orzularining yuksak ro'yobi edi. Mazkur voqea o'zbek tilining xalqaro diplomatiya tiliga aylanayotganidan dalolat beradi.

O'zbekiston bugun dunyoga faqat paxta yoki qazilma boyliklari bilan emas, balki o'zining yuksak madaniyati bilan bo'y ko'rsatmoqda. Zamonaviy dunyoda "Yumshoq kuch" (Soft Power) tushunchasi mavjud bo'lib, bu mamlakatning madaniyati orqali obro' qozonishidir. Shu ma'noda, Prezidentimiz tashabbusi bilan ta'asis etilgan Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofotning ahamiyati beqiyos. Ushbu mukofot turkiy dunyoning o'ziga xos "Nobel"iga aylanib, jahon olimlari

Bosh muharrir O'tkir RAHMATOV

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi – 229. Buyurtma G-1242. 31 379 nusxada bosildi. Hajmi – 2 taboq. O'fset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



TELEFONLAR:

Devonxona 71-259-74-51; kotibxona 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.



Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mulalligga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi hamda operator A. Ismailov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul.
Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir N. Ostonov.
Musahhah S. Islomov.

"Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni – 23.10 Topshirildi – 23.10

1 2 3 4 5 6

O'tgan yili tasvirlan olingan yangi o'zbek filmlari 1 – 25-fevral kunlari poytaxtimizdagi O'zbekiston Milliy kino san'ati saroyida bepul namoyish etilmoqda.

Xalq so'zi

Narodnoe slovo

MUASSISLAR:

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi